

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

prof. R.N.To'rayev

30 avgust 2024 yil

Ro'yxatga olindi

№ MD-71010401 -2.02

30 avgust 2024 yil

TURIZMDA INVESTITSIYALARNI BOSHQARISH
FANINING
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 1000 000- Xizmatlar
Ta'lim sohasi: 1010 000- Xizmat ko'rsatish sohasi
Magistratura mutaxassisligi: 71010401-Turizm va mehmondo'stlik (Ziyorat turizmi)

Termiz – 2024

Fan/modul kodi YEMPIQ2305		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
I.	Fanning nomi	Auditoriya Mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Turizmda investitsiyalarni boshqarish	60		90	150

I. Fanning mazmuni

Ushbu fan turizm sohasida investitsiyalarning o'zini, investitsiyalash maqsadlari, investitsiya jarayonlarining mazmuni va asosiy bosqichlari, investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari, investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhitining o'zini, investitsiya faoliyatida kapital qurilish, rivojlanish davlat dasturlarining amalga oshirilishi, investitsiya loyihalarining mohiyati, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tamoyillari, manbalari va usullari, investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini baholash, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va o'tkazish, qarz mablag'lari hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga loyihalarni moliyalashtirish, investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish, innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish, innovatsiya loyihalarini venchurli moliyalashtirish, mamlakat innovatsiya faoliyatini baholash, investitsiya va innovatsiya faoliyatini me'yoriy tartibga solinishi hamda hozirgi kunda investitsiya faoliyatining rivojlanish an'analari, istiqboli hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab oladi.

Magistrlarning ushbu fanni chuqur investitsiya va sug'urtachining investitsiya portfelini boshqarish, moliyaviy tahlil fanlari hamda xo'jalik subyektlarida investitsiya va innovatsiya faoliyatini tashkil etish va loyihalarni moliyalashtirishda zamin bo'lib xizmat qiladi.

“Turizmda investitsiyalarni boshqarish” fanining asosiy maqsadi magistrlarda investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati, investitsiyalarni jalb etish shakllari, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, davlat rivojlanish dasturini shakllantirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning samaradorligini baholash, innovatsiyalarni venchurli moliyalashtirish, mamlakat innovatsiya faoliyatini baholash bo'yicha yo'nalishiga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan bo'yicha magistrlar investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni hamda mikro va makroiqtisodiyotni rivojlantirishdagi

ahamiyatini tushunishi, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarining o'ziga xos jihatlarni anglashi, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashni amalga oshirilishini, xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya siyosati to'g'ri tashkil etilishini qonunlar, qarorlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'rganishlari va o'zlashtirishlari kerak.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-MODUL

INVESTITSIYALASH ASOSLARI

I-mavzu. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati

“Investitsiya” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, tarkibiy tuzilishi va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati. Investitsiyalash maqsadlari va diversifikatsiyalanishi. Investitsiyalarning tasniflanishi. Asosiy fondlarning shakllanishida kapital qo'yilmalarning roli. Moliyaviy va real investitsiyalarning o'zaro bog'liqligi. Jamg'armalar – investitsiyalar manbasi sifatida. Investitsiyalarning makro va mikroiqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli. Investitsiya jarayonining mazmun-mohiyati. Investitsiyalash maqsadlari va yo'nalishlari. Investitsiyalash ob'ektlarini tanlash. Real investitsiyalarni amalga oshirish. Real investitsiyalarni o'zlashtirish jarayonlari. Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish xususiyatlari.

2-mavzu. Investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati

Investitsion faoliyat tushunchasi. Investitsiya faoliyatining tarkibiy tuzilishi. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini muvofiqshtirishda davlatning roli. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etish omillari va usullari. O'zbekistonda investitsiya faoliyatining me'yoriy-qonuniy bazasi. “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya faoliyatini tashkil etish. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya faolligini ta'minlash vazifalari. Investitsiya siyosati: uning mazmuni, roli, asosiy yo'nalishlari va amalga oshirish bosqichlari. Globallashuv va chet el kapital migratsiyasining kuchayishi. Zamonaviy investitsiya siyosatini amalga oshirishda chet el investitsiyalari ko'chishini hisobga olish.

3-mavzu. Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli

Xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati va turlari. Xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilishning ob'ektiv zarurligi. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish turlari va shakllari.

To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi roli. "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi va "Chet el investitorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining mazmuni, maqsadi va ahamiyati. Xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar va kafolatlari.

4-mavzu. Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda erkin iqtisodiy hududlarning o'rni

Erkin iqtisodiy hududlarning mohiyati hamda ular rivojlanishining bosqichlari va asoslari. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish maqsadlari, ob'ektiv zarurligi va tasniflanishi. Rivojlangan davlatlarda erkin iqtisodiy hududlar barpo etilishi va rivojlanishi hamda ularning iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'siri. Erkin iqtisodiy hududlarning investitsiyalarni jalb etishdagi ahamiyati. Erkin iqtisodiy hududlarning turlari va ularga jalb etilgan investitsiyalarga nisbatan turli imtiyoz va rag'batlarning qo'llanilishi. O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarga jalb etiluvchi investitsiyalarning asosiy yo'nalishlari va samaralari.

5-mavzu. Iqtisodiyot va uning real sektorini rivojlantirishda xususiy investitsiyalarning o'rni va ahamiyati

Iqtisodiyotning real sektori tushunchasi mazmuni va uning milliy iqtisodiyot rivojidadagi ahamiyati. Iqtisodiyotning real sektori tarkibiy tuzilishi va shakllanishi. Tuzilmaviy islohotlarning iqtisodiyotning real sektoridagi tarkibiy o'zgarishlarga ta'siri va ahamiyati. Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish omillari va unda investitsiyalarning tutgan o'rni. Xususiy investitsiyalarning mazmuni va mulkiy asoslari. Xususiy mulkning iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishdagi ahamiyati. Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda davlat va xususiy sektorning ishtiroki. Xususiy investitsiyalar yordamida iqtisodiyot va uning real sektorini rivojlantirishning xorij tajribalari. O'zbekistonda iqtisodiyot va uning real sektorini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va samaralari. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlardan ko'zlangan maqsad va uning amalga oshirilishi natijalari. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot va uning real sektorini hamda mamlakat investitsiya faoliyatini rivojlantirishdagi o'mi va ahamiyati. Iqtisodiy inqiroz va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida xususiy investitsiyalardan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlari.

6-mavzu. Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhitining o'rni

Investitsiya muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar. Investitsiya muhitini baholash usullari. Investitsiya muhitida investitsion salohiyatni (tabiiy resurslar salohiyati, mehnat, ishlab chiqarish, innovatsion, moliyaviy salohiyatlar va iste'molchilik salohiyati) o'rni. Investitsiya muhitini shakllantirishda huquqiy-me'yoriy tizim. O'zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borish vazifalari.

7- mavzu.Davlat investitsiya dasturi

O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi, uning mazmuni, asosiy maqsadi, shakllantirish tartibi va muddatlari. Kapital qo'yilmalarni rejalashtirish. Muhim investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxati. Investitsiya loyihalarining adres dasturlari, adres ro'yxatlari: ularni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi. Investitsiya dasturlari asosida investitsiyalar va investitsiya faoliyatini tashkil etish. Dasturni amalga oshirish ustidan nazorat.

8-mavzu. Investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini baholash

Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mohiyati va ahamiyati. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash usullari. Investitsiya loyihalarini moliyaviy va iqtisodiy baholash. Investitsiya loyihalarini baholashning oddiy va diskont usullari.

2-MODUL

INVESTITSİYALARNI MOLİYALASHTIRISH YO'NALISHLARI

9-mavzu. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va usullari

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va ularning tarkibi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'z mablag'lari (foйда, amortizatsiya ajratmalari, maqsadli tushumlar va boshqalar). Jalb etilgan mablag'lar evaziga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish. Investitsiya faoliyatini qarz mablag'lari evaziga moliyalashtirish. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari.

10-mavzu. Investitsiyalarni moliyalashtirishda moliyaviy vositalar

Moliyaviy vositalar, ularning mohiyati, turlari va tasniflanishi. Birlamchi moliyaviy vositalar. Hosilaviy moliyaviy vositalar. Firmaning investitsion jozibadorligini baholashda moliyaviy vositalarning roli. Qimmatli qog'ozlar investitsiyalarni moliyalashtirish manbai sifatida. Investitsiyalash manbalarini shakllantirishda kapital va ssuda bozorlarining roli. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish evaziga moliyalashtirish manbalarini jalb etish. Aktsiyadorlik kapitali hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish.

11-mavzu. Investitsiya faoliyatini kreditlash

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar investitsiya faoliyatini kreditlashning ob'ektiv zaruriyati Investitsiya faoliyatini uzoq muddatli kreditlash. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar aylanna mablag'larini kreditlash xususiyatari. Investitsiya faoliyatida ipoteka krediti. Kreditni rasmiylashtirish tartibi. Korxonalarining kreditiga layoqatligi ko'rsatkichlari. Investitsiya faoliyatini kreditlash foiz siyosati. Asosiy qarz va undan foydalaniganlik uchun to'lanadigan to'lovni undirish tartibi. Kreditdan foydalanishi ustidan bank monitoringi.

12-mavzu. Investitsiyalarni moliyalashtirishning lizing mexanizmi. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish

Lizingning iqtisodiy tabiati, mazmuni va mohiyati. Lizing turlari. Lizing krediti – asosiy kapitalga qaratilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbai sifatida O'zbekiston Respublikasining “Lizing to'g'risida”gi qonunining mazmun-mohiyati. Moliyaviy lizingning zamonaviy ilg'or texnologiya, uskuna va jihozlarni joriy etishdagi qulayliklari. Xalqaro moliyaviy lizingning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi o'rni. Lizing munosabatlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi. Lizing to'lovlari summasini aniqlash.

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning mazmuni va mohiyati. Yirik investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Loyihaviy moliyalashtirishning asosiy ishtirokchilari va ularning funksiyalari. Loyihaviy moliyalashtirish turlari. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish. Investitsiya loyihalarini sindikati kreditlash xususiyatlari. Investitsiya loyihalarini sindikati kreditlashni tashkil etish.

13-mavzu. Innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish. Innovatsion loyihalarni venchurli moliyalashtirish

Innovatsiya va innovatsion faoliyat tushunchasi. Innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar. Innovatsiya faoliyati – tadbirkorlik taraqqiyotini yuksaltirish omili sifatida. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning innovatsiya faoliyati zaruriyati. Innovatsiya strategiyasining mohiyati. Korxonalarda innovatsiya strategiyani shakllantirish.

Venchurli moliyalashtirish jarayoni tarkibi. Investitsiyalarni venchurli moliyalashtirishning xorij tajribasi. Davlatning yuqori riskli investitsiyalash tizimining rivojlanishiga ta'sir etish mexanizmi va vazifalari. Venchurli moliyalashtirishda yuzaga keladigan innovatsion risklar va ularni boshqarish. Ilmiy, ilmiy-texnologik parklar va boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi parklar.

14-mavzu. Nomoddiy aktivlarga safarbar etiladigan investitsiyalarni moliyalashtirish

Nomoddiy aktivlar, ularning tarkibi va roli. Nomoddiy aktivlar – investitsiya ob'ekti sifatida. Erkin bozor va kuchli raqobat muhitida nomoddiy

aktivlarni kengaytirish zaruriyati. Nomoddiy aktivlarni baholash va “gudvill”. Gudvill tarkibi. Gudvill – investitsiya ob'ekti sifatida.

15-mavzu. Investitsiya risklari va ularni pasaytirish yo'llari

“Investitsiya risklari” tushunchasi, mazmun-mohiyati va xususiyatlari. Investitsiya faoliyati bilan bog'liq risklar va ularning tasniflanishi. Investitsiya risklarini aniqlash usullari. Investitsiya loyihalarida risklarni baholashning matematik usullari. Risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo'llari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-mavzu. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati
- 2-mavzu. Investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati
- 3-mavzu. Iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli
- 4-mavzu. Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda erkin iqtisodiy hududlarning o'rni
- 5-mavzu. Iqtisodiyot va uning real sektorini rivojlantirishda xususiy investitsiyalarning o'rni va ahamiyati
- 6-mavzu. Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya muhiting o'rni
- 7- mavzu. Davlat investitsiya dasturi
- 8-mavzu. Investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini baholash
- 9-mavzu. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va usullari
- 10-mavzu. Investitsiyalarni moliyalashtirishda moliyaviy vositalar
- 11-mavzu. Investitsiya faoliyatini kreditlash
- 12-mavzu. Investitsiyalarni moliyalashtirishning lizing mexanizmi. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish
- 13-mavzu. Innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish. Innovatsion loyihalarni venchurli moliyalashtirish
- 14-mavzu. Nomoddiy aktivlarga safarbar etiladigan investitsiyalarni moliyalashtirish
- 15-mavzu. Investitsiya risklari va ularni pasaytirish yo'llari

Amaliy mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jiln-rlanggan auditoriyalardan bir akatlenk guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'kazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar

1. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiya faoliyatining

mikro va makroiqtisodiy ahamiyati.

2. Intellektual investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati

3. Davlat investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari

4. Investitsiya faoliyati va infratuzilma

5. Investitsiya faoliyatini tartibga solishning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati

6. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati

7. Markazlashtirilgan investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining o'ziga xos xususiyatlari

8. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi qo'shma korxonalar faoliyati samaradorligini ta'minlash

9. Investitsiya faoliyatini rivojlantirishga foiz siyosatining ta'siri

10. Investitsiya faoliyatini jonlantirishga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta'siri

11. Investitsiyalarni jalb etishning jahon tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.

12. Hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalar

13. Investitsiyani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari.

14. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga investitsiya jalb qilishni rivojlantirish.

15. Globalizatsiya jarayonlarining investitsiyani rivojlantirishga ta'siri.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha magistrlar tomonidan esselar tayyorlash va taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, magistrantlar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

- investitsiyaning turlari va shakllari;
- investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish usullari;
- investorlarning huquq va majburiyatlari;
- investitsiya muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar;
- innovatsiya va innovatsion faoliyat haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- investitsiya dasturini shakllantirish va nazorat qilish tartibini;
- kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish tartibini;
- kapital qurilishda loyihalashtirish va kapital qurilish ishlarini olib borish usullarini;
- investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish ochish shartlarini;
- lizing operatsiyalarini tashkil etish va lizing to'lovlari summasini aniqlashni;
- investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish va investitsiya risklarini

boshqarishni;

- venchurli moliyalashtirishda yuzaga keladigan innovatsion risklar bilishi va ulardan foydalana olishi;

- investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, turlari, funktsiyalari, ob'ektlari va sub'ektlari to'g'risida;

- xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va iqtisodiyotga jalb qilishning ob'ektiv zarurligi to'g'risida;

- investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida;

- investitsiya siyosati, uning mazmuni va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidagi xususiyatlari hamda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish to'g'risida;

- investitsiya faoliyatining qonuniy-me'yoriy bazasi to'g'risida;

- investitsiyalarni moliyalashtirish usullari;

- investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish, kreditlash, lizing, forfeyting, investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish to'g'risida;

- kapital qurilish va "qurilish industriya"si to'g'risida;

- mamlakat innovatsiya faoliyatini baholash to'g'risida;

investitsiya risklari va ularni boshqarish yo'llari to'g'risida ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;
- interfaol keys-stadilar;
- blits so'rov;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- Esse, tezis va maqolalar yozish;
- jamoa bo'lib ishlashva himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

VIII. Adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Mamatov B.S., Xo'jamqulov D.Yu., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. Toshkent moliya instituti. T.: Iqtisod-moliya, 2014. 608 b.
2. Mustafakulov Sh. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo'llanma.

